

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirishning usullari

Qudratova Dilbar Eshimovna

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirishning usullariga oid olimlarning ishlari tahlil etilgan. Shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirishning usullari xususida fikr yuritilgan. An'anaviy va innovatsion usullar, shuningdek, ularning turli ta'lim sharoitlarida samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy dunyoda sifatli va moslashuvchan ta'limni ta'minlash uchun turli xil usul va vositalardan foydalanish muhimligini ta'kidlash uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchi, tabiatshunoslik, bilimlarini rivojlantirish, tabiiy fanlar, o'qitish usullari, o'qitish texnologiyalari, interfaol usullar, ta'lim usullarining samaradorligi

Методы формирования знаний учащихся начальной школы по естествознанию

Кудратова Дилбар Эшимовна

Преподаватель Навоийского государственного университета Узбекистана

Аннотация: В статье анализируются работы ученых по методике формирования естественнонаучных знаний учащихся начальной школы. В нем также рассматриваются методы формирования знаний учащихся начальной школы по естественным наукам. Рассматриваются традиционные и инновационные методы, а также их эффективность в различных образовательных условиях. Цель статьи — подчеркнуть важность использования разнообразных методов и инструментов для обеспечения качественного и гибкого образования в современном мире.

Ключевые слова: ученик начальной школы, естествознание, развитие знаний, естественные науки, методы обучения, технологии обучения, интерактивные методы, эффективность методов обучения

Methods of developing knowledge of primary school students in natural science

Kudratova Dilbar Eshimovna

Teacher of Navoi State University Uzbekistan

Annotation: This article analyzes the work of scientists on methods of developing knowledge of primary school students in natural science. Also, the methods of developing knowledge of primary school students in natural science are considered. Traditional and innovative methods are considered, as well as their effectiveness in various educational settings. The article is intended to emphasize the importance of using various methods and tools to ensure high-quality and flexible education in the modern world.

Keywords: *primary school student, natural science, knowledge development, natural sciences, teaching methods, teaching technologies, interactive methods, effectiveness of educational methods.*

Kirish Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarida kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim-tarbiya berish va natijalarni baholash samaradorligini oshirish, o'qitish usullarini takomillashtirish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Barchamizga ma'lumki, komil insonni shakllantirishning poydevori-bu boshlang'ich ta'limdir. Sababi, hali ongi to'liq shakllanmagan, hayot va jamiyat tushunchalaridan ancha yiroq bo'lgan, oqu-qorani, yaxshi-yomonni farqini bilmaydigan, dunyoni faqat yaxshilikdan iborat deb biluvchi murg'ak qalbli insonlar ilk bora ilmlar maskani - maktabga qadam tashlaganda ular uchun butunlay notanish bo'lgan olamga duch keladi. Ushbu boshlang'ich sinf davrida olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyalari, ularning tanlangan yo'llari kelajagini belgilaydi. Kelajagimizning porloq bo'lishi, yurtimizga xizmat qiluvchi, ajdodlarimizga munosib voris bo'lish bularning barchasi boshlang'ich ta'limda shakllanadi. Shu sababli, uzoqni ko'zlagan holda bizning O'zbekistonda ham umumiy ta'lim tizimiga, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. [1]

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari va albatta kichik yoshdagi o'quvchilarning estetik didlarini shakllantirish lozim. Sababi, ayni paytda tabiat, atrofmuhitning hozirgi holati o'simlik, hayvonot dunyosining yo'qolib borayotgan go'zalliklarini saqlab qolish bo'yicha muammolar paydo bo'ldi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga muruvvatli munosabatni, vatanparvarlikni va go'zallikni tushunishni tarbiyalash, o'quv jarayonlarni takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi, [2]

Adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyoda yashab o'z asarlari bilan tabiiy fanlar rivojiga barakali hissa qo'shgan olimlar Ibn Sinoning ustoz tabiatshunos Abu Abdullo Natiliy (X - XI asr), botanik (hashshob) Abu Hanifa Dinavariy (815 - 896), Xotam Roziy, Abu Bakr arRoziy, Naabulisiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalardir.

V.A. Gerd. Boshlang'ich maktabda tabiiyotni alohida predmet sifatida ajratish zarurligini ishonchli ravishda isbot qildi. Uning fikricha, faqat shu sharoitdagina darslarda shu predmetga xos metodlardan foydalanish va shu asosda bolalarga bilim berish, tabiat to'g'risida yaxlit tasavvur hamda tabiat hodisalarining farqiga bora olish uquvini hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Bu predmetni joriy qilinishi bilim xarakteri, material hajmi hamda o'rganish izchilligini tuzishni, shuningdek, o'quv soatlari ajratilishini va kursning umumiy tizimida darslar vorisligini ta'minlashni talab qiladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining qisqacha tarixi. Ushbu yo'nalishning birinchi metodisti Vasilii Fyodorovich Zuyev (1754 - 1794) hisoblanadi. U xalq bilim yurtlarida tabiatshunoslik darslarini olib bordi, o'qituvchilar seminariyasida leksiylar o'qidi. 1786- yili V.F.Zuyev "Tabiiyot tarixining ko'rgazmalari" nomli darslikni nashr

ettirdi, unda tabiiyotni o'rganish izchilligi, qazilmalar dunyosi (jonsiz tabiat), o'simliklar dunyosi (botanika), hayvonlar dunyosi (zoologiya) ko'rsatilgan.

O'quvchilarining bilimlarini rivojlantirishning usullari G.Ibragimova [3], M.Vaxobov [4], B.Xodjaev [5] kabi olimlar tamonidan tadqiqot ishlarini olib borgan. Ularning tadqiqotlarida O'quvchilarining bilimlarini rivojlantirishning usullarini taklif etgan.

G.Ibragimova [3] "Dunyoda kuzatilayotgan o'zgarishlar va taraqqiyot yangilanishlari mamlakatimiz ta'lim tizimi oldiga ham bir qator vazifalar qo'ymoqda. Jumladan, O'zbekistonni yanada rivojlantirish uchun biz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi ostida istiqbol rejalar tuza oladigan va amalga oshiradigan, davlat va jamiyatimiz oldida yechimini kutayotgan muammolarga kreativ yondashadigan malakali kadrlarni kamol toptirishimiz ustuvor vazifalardandir. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning barchasi ta'lim-tarbiya ishlarini yangi dasturlar asosida yuqori darajaga ko'tarishga, fikrlash doirasi keng, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, kreativ fikrlaydigan o'quvchilar tayyorlashga qaratilgan"

Shuning uchun bugungi globallashuv sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini rivojlantirishning usullarini qayta ko'rib chiqish, agar lozim bo'lsa takomillashtirishni taqozo etadi.

Metodologiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirishda usullardan foydalanishni tahlil qilish uchun tarixiy hujjatlar shu mavzu bo'yicha yozilgan maqolalar va Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyalar bilan tanishib chiqildi. Shu tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirishda usullari turlari va dars jarayonlarida qo'llanilishi o'rganildi. Bu ta'lim usullari bilan tupdan yoritilib va izohlar berildi.

Muhokama va natijalar Boshlang'ich sinflar uchun muljallangan o'quv dasturida ijtimoiy, tabiiy ob'ekt va xodisalarni o'rganishni maqsad qilgan "Atrof olam" hamda "Tabiatshunoslik" kabi o'quv fanlari alohida o'rin tutadi. Mazkur o'quv fanlarining bosh maqsadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim xajmini ko'paytirish, tabiat va jamiyat tizimidagi bilimlardan kelib chiqib, atrof olamni bilish jarayoni usullarini va atrof olam bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishni shakllantirish kabi vazifalar iborat. Zotan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida orttirilgan bilimlar, munosabatlar madaniyati, qadriyatlar tizimi, faoliyat usullari asosida tabiiy, ilmiy rivojlanish kuzatilishini tahlil qilib chiqamiz.

Ta'lim usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi- talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir- biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. O'qituvchilarning ayrimlari esa, «metod» tushunchasining o'rniga «uslub» tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo «uslub» tushunchasi «metod» atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi. Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz. Demak, ta'lim metodlari quyidagicha tasniflanadi:

1. An'anaviy ta'lim metodlari: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy , kitob bilan ishlash va video metodlari.
2. O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari: Axboriy-retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon etish, evristik (qisman izlanish), tadqiqotchilikka doir.
3. Asosiy didaktik maqsadlarga ko'ra ta'lim metodlari:
 - a) yangi bilimlarni egallash;
 - b) ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
 - d) bilimlarni amaliyotda qo'llash.
4. Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari:
 - a) bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari;
 - b) o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;
 - d) o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari;
 - c) o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.
5. Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.
 - a) o'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari;
 - b) yangi materialni anglash metodlar;
 - d) o'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar.

Ta'limning asosiy maqsadlari va ularga erishishda o'qitish usullarining rolini belgilash zamonaviy pedagogikaning asosiy jihatini ifodalaydi. Ta'lim maqsadlari ko'p qirrali kompleks sifatida namoyon bo'ladi, jumladan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashish va shaxsni rivojlantirish. O'qitish usullari, bu maqsadlarga erishish uchun vosita bo'lib, nafaqat o'rganishga qaratilgan. axborot, balki faol fikrlashni rag'batlantirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ma'ruza kabi an'anaviy usullar asosiy ma'lumotlarni taqdim etsa, interfaol usullar, jumladan, guruhlarda ishlash va bahs-munozaralar materialni chuqur o'zlashtirishga yordam berib, ta'lim jarayonini boyitadi. Usullarni har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va o'quv uslubiga moslashtirish muhim jihatga aylanadi. Shunday qilib, ta'lim maqsadlariga samarali erishish va o'quvchida zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish uchun usullarning uyg'un kombinatsiyasi juda muhimdir. Bugungi ta'lim sharoitida o'qitishning turli usullari samarali ta'lim muhitini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar kabi an'anaviy usullar ta'lim jarayonining standart komponentlari hisoblanadi. Nazariylar o'quvchiga asosiy ma'lumotlarni beradi, amaliy mashg'ulotlar esa olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim paradigmalarining rivojlanishi bilan interfaol usullarga e'tibor kuchaymoqda. O'quv jarayoniga guruh muhokamalari, loyiha topshiriqlari va rolli o'yinlar faol kiritiladi. Bu usullar o'quvchilarning faol ishtirokini, muloqot ko'nikmalarini va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Muhim jihat ham o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishdir. Differentsial yondashuv o'qitish usullarini o'quvchilarning turli darajadagi bilim va qobiliyatlariga moslashtirishga imkon beradi, yanada samaraliroq o'rganishni ta'minlaydi. Biroq, tanqidchilar o'zaro ta'sirning cheklanganligini, faol o'quv faoliyatining yetishmasligini va uzoq vaqt davomida o'quvchilarning e'tiborini yo'qotishini ta'kidlaydilar.

"Amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni amaliyotda faol qo'llash orqali mustahkamlashga mo'ljallangan. Ular laboratoriya ishlari, amaliy tadqiqotlar, guruh loyihalari va boshqa interaktiv tadbirlarni o'z ichiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga olgan bilimlarini amalda qo'llash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish

imkonini beradi. Biroq, ular uzatiladigan ma'lumotlar miqdori bilan cheklangan bo'lishi mumkin va o'qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qilishi mumkin. Usullarning umumiy ko'rinishi ularning ta'lim asoslarini shakllantirishdagi rolini tushunishga yordam beradi, ammo zamonaviy pedagogika faollik va o'rganishni kuchaytirish uchun ko'proq interfaol va innovatsion yondashuvlar bilan integratsiyaga intiladi" [6]

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirish usullardan iborat. Bu usullar dars jarayonida bilim ko'nikma va malakani o'quvchilarga yetkazish samaradorligini oshirishga zamin yaratgan. Sifatli ta'lim tizimi va dars samaradorligini oshirishda usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot natijalari Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini rivojlantirish usullarning boshqa muhim jihatlarini ham aniqlab berdi. Usullar birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik usullarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va turlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olish kerakligini anglashda muhim saboqlar beradi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. <https://api.ziynet.uz/uploads/books/10001253/mj9I1rGY4ryvtyV.pdf?HYH93RP1xr5mVTIYI7nsm>
2. <https://api.ziynet.uz/uploads/books/251467/5b33504aa4fee.pdf?MyCibV8NCjvvgnimFPIBp>
3. G.Ibragimova Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. dok. ... diss. – T.: 2017. – B. 7.
4. M.Vaxobov Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016. – B. 5, 11, 15.
5. B.Xodjaev Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016. – B. 8, 11-12, 50, 77, 80-82.
6. Z.I.Mirzayunosova O'QITISH USULLARI VA VOSITALARINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz/file:///C:/Users/User/Downloads/1605-Article%20Text-1544-1-10-20240610.pdf>
7. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi darslik Toshkent 2020 yil